

MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Xolmirzayev Xurshidbek

Kimyo xalqaro universiteti

Turizm yo'nalishi toue-52u guruh talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada Hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, biosfera qo'riqxonalari, evtrofikatsiya, genofond, genetik, landshaftlar, biologik stansiyalar, mikroqo'riqxonalar.

Ekoturizm - tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, "tabiiy muhit", madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishli daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o'z ichiga oladi. Ekoturizm turizmning boshqa turi kabi ekologik barqaror bo'lishi, sayyohlarga zavq-shavq baxsh etishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga "mos tushishi" kerak. "Mos tushishi" degan so'zning ma'nosi shuki bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko'lami va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to'g'ri kelishi zarur. Turli adabiyotlarda ekoturizm turlicha talqin qilinadi: Avstraliyaning Milliy ekoturizm strategiyasida ekoturizm – tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqi ekoturizmni "atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda "ayab" ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy hududlarga ekologik ma'suliyatli sayyohat", deb tushuntiradi. Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi ekoturizmni "atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir" deb ta'kidlaydi. Ushbu turdagi turizmning rivojlanishi quyidagi uchta tamoyilga asoslangan: turistlarga xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlarning bir qismi joylarda qoladi va tabiatni muhofaza qilishga yo'naltiriladi;

atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga qat'iy rioya qilish;

sayyohlik safari tadqiqot maqsadlarida tashkil etiladi.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tamoyillar yotadi. Bular: bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog'da, sayr va hokazo), talabalar ta'tillari, ormetologik turlar, ilmiy turlar va ekspeditsiyalar, dam olish kuni ekskursiyalari, yozgi bolalar lagerlari va h.k

An'anaviy turizmdan ekoturizm quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

tabiiy turizm ob'ektlarining ustunligi;
 tabiatdan barqaror foydalanish;
 hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bevosita ishtirok etish;
 mahalliy jamoatchilikning yanada ko'proq jalb qilinishi;
 kam resurs va energiya sarfini talab etishi;
 sayyohlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishi.

Ekoturizmni faqat foyda manbayi deb hisoblash to'g'ri emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat va natijalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin. Eng avvalo, o'simliklar nobud bo'ladi, o'simliklar payxon qilinadi, yer o'piriladi va zichlashib ketadi, hayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo'q qilinadi, ovqatlanish tarzi o'zgaradi, turlari ayniydi, hayvonlar notabiiy to'planadi, suvda yashaydigan hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon etadi, biotoning buzilishi, oziq moddalarning emirilishi va yo'qolishiga olib keladi (tog'li joylarda, o'rmon yong'ini xavfi), suvning ifloslanishi va evtrofikatsiya yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, g'oyalar emiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon g'oyalar shikastlanadi, baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg'oqlaridagi o'simliklar payxon bo'ladi, qirg'oqdagi tuproq o'piriladi, zichlashadi, o'simliklar nobud bo'ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzi o'zgaradi.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni hududiy tashkil etish ekologik - iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi va amaliyotiga asoslanadi. Ekologik - iqtisodiy rayonlashtirish doirasida mintaqalar va hududlar xo'jaligining ixtisoslashishi va majmua rivojlanishi masalalari bir qatorda xo'jalik va tabiatning konkret hududlarda o'zaro ta'sirining maqsadga muvofiq shakllari ham belgilanadi. Shu sababdan mintaqalar tabiatidan foydalanishning hududiy xususiyatlarini faqat ekologik - iqtisodiy rayonlashtirish orqali aniqlash mumkin. Ekologik - iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatda tabiiyekologik imk oniyatni har tomonlama hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyotini hududiy rivojlanishini takomillashtirishga va mintaqalarning tabiiy resurs illkoniyatidan unimli foydalanishni hududiy boshqarishni tashkil etishga xizmat qiladi. Mintaqalarning ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim omilidir. Ekoturizm jamiyati (AQSH) 1992 yilda taklif qilgan ta'rifga ko'ra, ekoturizm - " tabiati nisbatan tegilmagan joylarga mazkur hududning tabiiy va madaniy-etnografik xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish uchun ekologik sistemalarning yaxlitligini buzmasdan, tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun iqtisodiy foydali bo'ladigan sharoitlar yaratish yo'li bilan sayohatlarni tashkil etish". Jahon turistik tashkiloti qabul qilgan

ta'rifga ko'ra, "ekoturizm - bu tabiiy turizmning nazorat qilinadigan shakli : turistlar tabiiy hududlar bo'ylab mahalliy gidlar kuzatuvda piyoda safarlar yoki sayohatlarga chiqadilar, bunda gidlar ularga mahalliy flora, fauna va ekologiya haqida tushuntirishlar beradi. Ekoturizm ekologiya bilan tanishish, qishloqlar va fermalarga tashrif buyurishni ham o'z ichiga olishi mumkin". Mazkur talqin ekoturizmning shunday bir barqaror rivojlanishini nazarda tutadiki, bunda turizmning tabiiy, madaniy va boshqa resurslari kelajakda doimiy foydalanish uchun saqlab qolinadi va hozirgi vaqtda hamjamiyatga foyda keltiradi. Barqaror rivojlanish konstepstiyasi xalqaro maydonda 1980-yillarning boshidan keng tarqaldi. Ammo bundan oldinroq ishlab chiqilgan turizmni rivojlantirish dasturlarining aksariyatida ham turistik resurslarni saqlash hisobga olingan. Turistik o'zlashtirish jmayonida ob'ektlarning eng maqsadga muvofiq tipini va ularni joylashtirishni aniqlashda atrof muhitni sinchkovlik bilan kuzatish, uning barcha elementlarini tahlil qilish va hisobga olishni nazarda tutadigan ekologik rejalashtirish barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy usullaridan biriga aylandi . Bu yerda misol tariqasida umum e'tirof etilgan ta'riflarning yana ikkitasini keltirish mumkin. Avstraliyaning "Ekoturizm milliy strategiyasi"da quyidagi ta'rif qo'llanilgan: "ekoturizm - zamirida tabiat yotadigan, atrof tabiiy muhit bilan tanishish va uni tushuntirishni o'z ichiga oladigan ekologik jihatdan barqaror turizm". Kanada atrof muhit masalalari bo'yicha Maslahat Kengashi taklif qilgan ta'rifga ko'ra, "ekoturizm - ekologik sistemani saqlashga ko'maklashadigan va mahalliy jamiyat yaxlitligini buzmaydigan saboq bo'ladigan tabiiy sayohat" . Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasi (IUeN) qabul qilgan ta'rif ekoturizm haqida ancha aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi: " ekoturizm - nisbatan tegilmagan tabiatli joylarga lazzatlanish va mazkur hududning tabiiy va madaniy-tarixiy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish maqsadida atrof muhitga nisbatan mas' uliyat bilan yondashishga asoslangan sayohatlar". Bunda barcha sayohatlar tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashishi va tabiiy resurslarni muhofaza etishdan mahalliy aholi nafko'rishi uchun iqtisodiy sharoitlar yaratishi lozim. Shunday qilib, xalqaro va milliy darajalarda rasmiy qabul qilingan ta'riflarda ekoturizmning uni: nisbatan tegilmagan tabiatli va jalb qiluvchan madaniy-tarixiy muhitli joylarga saboq bo'ladigan sayohatlar sifatida; mamlakatlarni ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tabiiy va madaniy-tarixiy muhitni muhofaza qilishdan mahalliy aholi naf ko'radigan usuli sifatida tavsitlovchi ikki mezonni ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

O'zbekiston ekologik turizm va uning sarguzasht turlaridan rafting, trekking, miniladigan turizm ("door of road"), agroturizm, alpinizm va boshqa sport turlarini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga va o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan organizmlar genofondi,

ajoyib tabiiat komplekslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

Ekologik turizm nuqtai-nazaridan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tayanch hududlar sifatida qaralmog'i lozim. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'zlarining tabiiy landshaftlaridan allaqachon mahrum bo'lganliklari sababli, yildanyilga boshqa mamlakatalrning tabiatiga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun turistik resurslardan samarali foydalanishda tabiat muhofazasining o'rni katta. Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta'minlab iqtisodiyotimizni rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Mahalliy, aholini ehtiyojini qondirish ko'proq tabiatdan foydalanish turlariga borib taqaladi. Tabiiy resurslardan ishlab chiqarishda tobora ko'proq foydalanish, jamiyatning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish, inson hayoti va faoliyatini ta'minlash uchun tabiiy muhitdan foydalanishning kuchayishi tabiatning ayrim hududlarini tabiiy holatda saqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday hududlar alohida muhofaza qilinadigan hududlar (akvatoriyalar) bo'lib, ular ekologik, genetik, asrash, muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish, madaniy-maorifiy funksiyalarni bajaradi va ular faol xo'jalik o'zlashtirilishidan chiqariladi. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar ekologik balansni qo'llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish, ekotizimlar va organizmlar genofondlari etalonlarini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash, rekreatsiya va tabiat muhofazasi ta'lim-tarbiyasi, shuningdek, ham tabiiy sharoitlarda, ham inson ta'sirida kechadigan mahalliy, mintaqaviy va global tabiiy jarayonlarni o'rganish maqsadlariga xizmat qiladi. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar statusi, funksiyasi, rejimi va boshqarishni tashkil etishdagi farqlari hisobga olinib, quyidagi kategoriyalarga bo'linadi (tasniflanadi):

1. Davlat tabiat qo'riqxonalari, shu jumladan, biosfera qo'riqxonalari.
2. Milliy parklar.
3. Davlat milliy tabiat parklari (bog'lari).
4. Davlat tabiat buyurtma qo'riqxonalari (zakazniklar).
5. Davlat tabiat yodgorliklari.
6. Alohida muhofaza qilinadigan boshqa tabiiy hududlar: suv muhofazasi mintaqalari, kurort-sog'lomlashtirish tabiiy hududlari, rekreatsiya zonalari, botanika bog'lari, dendrologiya bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, hayvonot bog'lari, baliqchilik xo'jaligi tegralari. Bundan tashqari alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning boshqa shakllari – yashil zonalar, shahar

o'rmonlari, shahar parklari, bog'-park san'ati yodgorliklari, muhofaza qilinadigan qirg'oq liniyalari, muhofaza qilinadigan daryo tizimlari, muhofaza qilinadigan landshaftlar, biologik stansiyalar, mikroqo'riqxonalar va boshqalar ham tashkil etilishi mumkin.

Jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potentsiali va resurslarini namoyish qiladi, hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirishi mumkin, O'zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish imkoni paydo bo'ladi. Ekoturlar, tog' bag'irlariga sayohat, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining e'tiborini tortayotir,- deydi jurnalist-ekolog Nargis Qosimova.

Ekspertimiz so'zlariga ko'ra, turistik marshrutlar o'tkazilgan hududlardagi ahvol yaxshi emas. Masalan Navoiy viloyati Qizilqum cho'lidagi Tosh o'rmon sayyohlarning betartib borishi, toshlarning olib ketilishi natijasida dunyodagi 3 tadan biri bo'lgan noyob, qadimiy toshga aylangan daraxt qoldiqlari kamayib bormoqda. Bu boradagi nazorat esa o'ta sust. Yoki Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi noyob qadimgi artefaktlar, ibtidoiy odamlar chizilgan suratlar toshning mahalliy aholi va sayyohlar tomonidan bo'laklanishi oqibatida yo'qolib bormoqda. Zarafshon qo'riqxonasining Milliy tabiat bog'iga aylantirib, tadbirkorlarga ekoturizmni rivojlantirish uchun ajratilgan yerlardagi qurilishlar oqibatida Zarafshonning noyob tabiatiga tiklab bo'lmas zarar yetkazildi. Zomin milliy tabiat bog'ida nazoratning deyarli yo'qligi bois ayniqsa, yozda soy bo'yi chiqindilarga to'lib ketadi, dam oluvchilar noyob, aksariyat holatda "Qizil Kitob"ga kiritilgan o'simliklarni, archa shoxlarini yulib ketishadi. Zominda dam oluvchilar tomonidan ehtiyotsizlik bilan o'chirilmagan gulxandan yonib kul bo'lgan salkam 80 gektar o'rmonning tovonini kim to'laydi?- deydi kuyunib Nargis Qosimova .

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish uchun sayyohlarni, tadbirkorlarni nazorat qilish, tabiatni asrash, huquqbuzarlarni xoh u xorij fuqarosi bo'lsin, hox O'zbekiston fuqarosi bo'lsin javobgarlikka tortish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim,-deydi ekspert.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR

1. Nigmatov A. N., Shamuratova N. T. Ekoturizm asoslari. (O'quv qo'llanma)– Toshkent: Turon Iqbol, 2007.–127 b.
2. Raxmatullayeva F.M. Mintaqaviy turizm. Monografiya. – Buxoro: Durdona, 2018. – 52 b.
3. Soliyev A.S., Axmedov Y.A., Muhamadaliyev R.Y., Nazarov M.I., Tojiyeva Z.N., Boltayev M.J., Atajanova U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot (O'quv qo'llanma).– Toshkent: Universitet, 2003.– 304 b.